

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEK TILINI DUNYO MIQYOSIDA KENG  
TARG‘IB QILISH BO‘YICHA HAMKORLIK  
ISTIQBOLLARI»**

**mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

*2020-yil 19-20-oktabr*

**TOSHKENT - 2020**

64	<i>Сайфуллаев Бауыржан, Дүйсәбаева Дилбар.</i> Қазақ және өзбек тілдеріндегі соматикалық фразеологиялар	264
65	<i>Ahmedova Nargiza Shikhanazarovna</i> O'zbek tilida oila konseptining ifodalanishi	268
66	<i>Qurbonov Abdujalil</i> O'zbek millatining qiyofasi va ma'naviy boyligi - o'zbek tilidir	271
67	<i>Bazarov Bunyod</i> The role of intercultural communication in study foreign languages	275
68	<i>Saydalievna Mixlisaxon</i> Precedent birlik va precedent nom, ularning o'zbek lingvomadaniy jamiyatida qo'llanishi	277
69	<i>Karimova Feruzaxon</i> Nega va nima so'roq gapli dialogik birliklarning pragmatik mazmuni haqida	280
70	<i>Nasrullayev Nu'mon</i> Dil o'gretiminde chokkulturluluk ekseninde kultur yaklasimni temel alan o'gretim programi	283
71	<i>Sabitova Ersoza Shuhrat kizi</i> Some forms of legal terms in uzbek lexicography	289
72	<i>Axmedova Aziza</i> Cho'lon asarlarida intertekstuallik	291
73	<i>Abdullayev Amirulla</i> Ingliz tilida harakat tarzi ma'nolarining ifodalanishi	294
74	<i>Xolmurodova Madina</i> Madaniyatlararo muloqotda o'zbek adabiyotidagi "O'tkan kunlar" realistik romani	297
75	<i>Saparbaeva Gulandam Masharipovna, Azatova Nodira Ammarbek kizi</i> Translation strategies of culture-specific word in fairy-tales from and into the uzbek language	299
<b>IV SHU'BA. GLOBALLASHUV VA HOZIRGI TURKIY TILLAR</b>		
76	<i>Erhan Solmaz</i> Kultur tashyovchisi olarak "efendi latifeleri"	304
77	<i>Abdullayev Sayfulla</i> Uyghur tilini musteqil revishte uginish mesililiri	309
78	<i>Veli Savay Felok</i> Ozbek Dili ve Edebiyatının Ogretimi	312
79	<i>Kaljanov Ali</i> Ibrayim Yusupov shugarmalarında omonimlarning qollaniluv özgeshelikleri	315
80	<i>Xolmanova Zubaymor</i> Turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasining taraqqiyot xususiyatlari	320
81	<i>Abdurahmonova Muqaddas, Alovuddinova Nodira</i> Turkiy tillardagi kelishik kategoriyasi haqida ayrim mulohazalar	323
82	<i>O'razova Iqbol</i> Frazemalarning shevada qo'llanishi	326
83	<i>Bobomurodova Shoira</i> 20-30-yillar o'zbek va tatar tilshunosligi orasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari	331
84	<i>Safarova Zilola</i> Ingliz va o'zbek maqollarida "yetim" va "yetimlik" tushunchalari talqini	337

foydalanganlar. Ma'qul bo'lganlarini aynan o'zlashtirganlar. Shu sababli o'zbekcha tilshunoslik atamalar tarixi haqida fikr yuritganimizda, asosan, tatar tilshunosligining samarali ta'sirini qayd qilish lozim bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulqodiriy M. Qavoidi lisoni turkiy. Darsaodat, 1905. –B. 65.
2. Birinchi bosqich el yozuqlarining 1920-1921 o'quv yili uchun saboq tuzugi. Eski shahar maorif sho'bas. 1920. –B. 37.
3. Boytursunov A. Qazaq tilining sarfi. -Toshkent: Издание комиссариата народного образования Туркестанской республики, 1918. – C. 42.
4. Validiy J. Tatar tilining grammatikasi. – Qozon: 1919. –B. 172.
5. Ibrohimov O. Tatar sarfi. -Qozon: Saboh shirkati, 1918. – B. 84.
6. Ne'matulin F. Qavoidi turkiya. - Qozon: Maorif komissiyasi, 1907. –B. 40.
7. Ne'mat Hakim. Turk tillarining qonunlarini tuzishdagi asoslar haqida // Inqilob. 1922.- № 3. -B. 30-35.
8. Ne'mat Hakim. Oyoqliq xatolar, fanniy jinoyatlar. (Sa'diyning "Grammatika asoslari" haqidagi maqolalari munosabati bilan) // Inqilob. 1923.-№ 9.10. -B.187-196.
9. Ne'mat Hakim. O'zbek tili sarfi to'g'risida // Qizil O'zbekiston. 1925. 10,12,14 may.
10. Ne'mat Hakim. Harf, imlo masalasi //Qizil bayroq. 1922. 27 yanv, 7, 12,13, 18 fev.
11. Polivanov E.D. Turk grammatikalarining asoslari haqida // Inqilob. 1922. -№ 4. -B.23-26.
12. Hay'at. Til saboqlari. - Tatariston: 1921. – B. 79.
13. Ramazon Q. Til va imlo tortishuvi // Tong. 1920. 9 apr.
14. Rahimiy Sh. Til va imlo // Ishirokiy. 1920. 20 noyab.
15. Sa'diy A. O'zbek bilim yurtlari uchun ona tili va adabiyot pro'g'roni // Bilim o'chog'i. 1923. -№ 2,3. -B.44-47.
16. Sa'diy A. Yangi kitoblar. Tanqid // Qizil bayroq. 1922. 22, 25, 27 iyul.
17. Sa'diy A. Turk tillarining qonun-qoidalarini o'rganish hamda tuzishda asoslar // Inqilob. 1922. -№ 1. -B. 22-34; - № 5. -B. 39-48;
18. Elchi. Imlo masalasi // Ishirokiy. 1920. 26 sent.
19. Elbek. Turk tillarining qonunlari to'g'risida mulohazalar // Qizil bayroq. 1922. 8 may.
20. Elbek. Til, atama va imlo bahslari // Qizil O'zbekiston. 1929. 28, 30 yanv.
21. Elbek. Imlo va til qurultoyining chaqirilishi oldidan // Ishirokiy. 1920. 18, 19 sent.

#### Ingliz va o'zbek maqollarida "yetim" va "yetimlik" tushunchalari talqini Interpretation of the concepts of "orphan" and "orphan hood" in English and Uzbek proverbs

Safarova Zilola Tolibovna \*

*Annotation: One of the oldest genres of folklore proverbs are the conclusions drawn from the experience of our ancestors over the centuries. Each proverb reflects the history, customs, way of life, character, psyche and even the whole existence of the people. Accordingly, proverbs can be on a variety of topics. This article analyzes the different views on the concepts of orphans, orphan hood and stepparents in proverbs.*

\*O'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, safarovaenglishteacher@gmail.com

*Key words: folklore, proverbs, orphan, orphan hood, theme, sayings, interpretation.*

Folklor xalma-xal janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib, bu janrlar orasida maqollarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Ingliz olimi Kirkpatrik maqolni shunday ta'riflaydi: *"Proverbs are traditional sayings often expressed in clever, witty and memorable language"* (*Maqollar aqlli, dono va esda qolarli tilda ifodalangan milliy hikmatlardir*) [Phyu Thinn, 2019: 147].

Xalq maqollari turli mavzularda yaratilgan bo'lib, ularning bir qismini yetim va yetimlik, o'gaylik tushunchalari bilan bog'liq maqollar tashkil qiladi. O'zbek tilining izohli lug'atida "yetim" so'ziga "otadan, onadan yoki har ikkovidan ajralgan bola" [O'zbek tilining izohli lug'ati, 1981: 250] deb izoh berilgan. Bundan tashqari, "tirik yetim" (ota-ona tomonidan tashlab ketilgan bola), "chim yetim" (ota-onasidan ajralgan bola) va "sag'ir" (voyaga yemagan yetim bolaga nisbatan ishlatiladi) [O'zbek tilining izohli lug'ati, 1981: 30] kabi tushunchalar izohi ham keltirilgan bo'lib, bu so'zlarning bari yetimlik va o'gaylik bilan bog'liq maqollarda tez-tez takrorlanib turadi.

Xalqimizda bola taqdiri, tarbiyasi, kelajagi masalalariga azal-azaldan katta e'tibor qaratib kelingan. Bu masalaga tegishli muammolar hamisha jamiyat taqdiri va kelajagi bilan bog'liklikda hal qilingan. Bu o'rinda maqollar ham tarbiya va tashviqot vositasi sifatida xizmat qilgan.

E'tiborli tomoni shundaki, bunday mavzudagi maqollar boshqa xalqlar folklorida ham uchraydi. Alisher Navoiy *"Kimmuki bilay desang maqolim angla, asim desang anglayin flolin angla"* [Shomaqsudov, 1990: 2] deb aytganidek, dunyo xalqlari maqollarini qiyosiy o'rganish turli millat dunyoqarashi va psixologiyasini aniqroq tushumishga yordam beradi.

O'zbek maqollarida ko'pincha yetimlarga nisbatan bag'rikeng, sahovatli, muruvvatli bo'lish kerakligi ta'kidlanadi. Ammo ayrim maqollarda ulardan yaxshilik kutib bo'lmasligiga urg'u qaratiladi. Bunga *"Yetimni silyasang, chorig'i bilan to'rga chiqar"*, *"Rahm otama yetimga, yetim urar betingga"*, *"Yetimchadan boy chiqsa, apron bermas icharga"* kabi maqollar misol bo'la oladi. Ularda yetimlarga salbiy munosabat aks ettirilgan.

Ma'lumki, taniqli o'zbek shoiri va nosiri G'afur G'ulomning "Yodgor", "Shum bola", "Netay", "Tirilgan murda" singari qator qissalarida yetim bola bosh obraz sifatida tasvirlangan. Shuningdek, ularning syujet tarkibiga yetim haqidagi maqollar ham singdirilgan. Jumladan, yozuvchi "Yodgor" qissasida xalq orasida keng tarqalgan *"Yetim qo'si arasang og'zi-burning moy qilar, yetim bola arasang og'zi-burning qon qilar"* maqolini qo'llagan. Bu maqolda ham yetim bola boqishning oqibati yomon bo'lishiga ishora qilinadi. Yetimga bunday salbiy munosabat chex xalqining *"Put another man's child in your bosom, and he will creep out at your elbow"* (*Birovning bolasini ko'ksingizga qo'yasangiz, tirasingizga tirmashib oladi*) maqolida ham kuzatiladi.

Biroq ko'pgina maqollarda xalqimizning yetimparvarligi, sag'ir bolalarga mehribonligi, insonparvarligi namoyon bo'ladi. Ularda yetim bolalarga nisbatan mehri bo'lishga, g'amonxohlik qilishga, mehr-oqibati bo'lishga, yetimlarning haqiga hiyonat qilmaslikka chorlov va da'vat yetakchilik qiladi. *"Yetim-yetim demangiz, yetim haqqin yemangiz"*, *"Etimni yig'latma"*, *"Mard yetimga yang bo'lar, bo'lmaganga boy"*, *"Yetim yetti upidan osh ichar"* singari maqollarda xuddi shu holatni kuzatish mumkin. Bunday ma'nodagi maqollardan turli badiiy asarlarda ham keng qo'llanilgan.

Aytish kerakki, hadislar va buyuk allomalarning hikmatli so'zlarida ham yetimparvarlik g'oyalari keng targ'ib qilingan. Ba'zan shu haqdagi hadislar bilan maqollarning mazmunan yaqinligi anglashiladiki, bundan ularning bir-biriga g'oyaviy ta'sir ko'rsatganini ilg'ash mumkin. Bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'staboevning "Jannati odamlar" asarida payg'ambarimiz Muhammad alayhi vasallamning *"Bir yetimning ko'nglini oviasang, yetti hajning savobini olasan* [X.To'staboev, 2015: 93]", degan hadislarini keltirilgan.

Mirbarot Fozilov "Aql aqldan quvvat oladi" nomli hikmatlar va maqollar to'plamida Sa'diy Sheroziyning:

*Gar ochlikdan bersa ham mard jon,  
Yetimlar haqin yemagan hech qachon* [M.Fozilov, 1967: 7].

Sayqaliyning:

*Tarahhum qil yetimlar holig'a san,  
Amal qil yuzshilar af'olig'a san* [M.Fozilov, 1967: 7]. –

kabi hikmatli misralarini keltirib o'tgan.

Yana bir guruh maqollar mazmunida yetimlarning ojiz va nochor ahvoli aks etirilgan. "Yetim qizning to'yini yomg'ir buzar", "O'zing uchun o'li yetim", "Yetim o'z kindigini o'zi kesar", "Ot oriqlikda, qiz yetimlikda ko'rimisiz" kabi maqollarni bunga misol qilish mumkin. "Hoiyani hokim yer, kaltakni yetim", "Tayyor oshga bakovul, yetim qizga yozovul", "Yetim kimniki, osh berganiki" kabi maqollar esa qora niyatli kishilarning yetimlarga nisbatan adolatsizligini, ulardan o'z manfaatli yo'lida foydalanmoqchi bo'lishlarini anglatadi. Bunday yondashuv britaniyaliklarning "A surgeon experiments on the heads of orphans" (Xirurg yetimning kallasida tajriba o'tkazadi), afrikaliklarning "It is the cloth of an orphan that is often given to the guest" (Mehmonga yetimning kiyimi beriladi), arablarning "The barber learns to shave on the orphan's face" (Sartarosh soqol olishni yetimning yuzida mashq qiladi) maqollarida ham o'z ifodasini topgan.

G'afur G'ulomning "Shum bola" asarida keltirilgan "Yetimning otasi ko'p" maqolida yetim bolaga ko'pchilikning xo'jayinchilik qilishga intilishi nazarda tutilgan.

Onasiz yetim va otasiz yetimlarning ahvoli bir-biridan farq qilishini "Ona bilan qolgan gul yetim, ota bilan qolgan shum yetim", "Onali yetim orli yetim, otali yetim orsiz yetim", "Otasiz yetim – bir yetim, onasiz yetim – ikki yetim", "Otasiz o'g'lon – yetim, onasiz o'g'lon – yesir" singari maqollar misolida ko'rish mumkin. Tuba valqida xuddi shu ma'noda ishlatiladigan "Without father – half orphan, without mother – complete orphan" (Otasiz – yarim yetim, onasiz – butkul yetim) maqoli mavjud. Inglizlar esa shu ma'noda "Better a thieving mother, nor a riding father" maqolini ishlatishadi. Ushbu maqollarda otaga qaraganda bolaga onaning mehrilovroq bo'lishi, uni ko'z qorachig'idek asrashi ta'kidlab o'tilgan. Negaki, ota bolasini sevgani bilan uning atrofida har doim parvona bo'la olmaydi, ko'pincha ko'chada tirikchilik vajidan yurishi bois uning hol-ahvolidan hammavaqt xabar olib bilmaydi. Natijada bola nazoratsiz qolib ketadi.

Yetimlik mavzusidagi maqollar bilan bir qatorda, xalq orasida o'gaylikka bo'lgan munosabatni ko'rsatuvchi maqollar ham talaygina. Bu kabi maqollarda o'gay ona hamda o'gay otaning chin ota-onaga bo'la olmasligi nazarda tutiladi. Bu o'rinda "O'gay ota non bermas, non bersa ham jon bermas", "O'gay ota o'kirar, yuragidan bo'kirar", "O'gayning oti qursin, saksovulning o'ti qursin", "Onang o'gay bo'lsa, otang o'zingniki emas" maqollarini aytib o'tish lozim. Ispan xalqining "There is no mother like the mother that bore us" (Bizni dunyoga keltirgan onadek ona yo'q), danijalilarning "The child that gets a stepmother gets a stepfather also" (O'gay onaga ega bo'lgan bola, o'gay otaga ham ega bo'ladi) maqollari o'gaylik borasida yuqorida keltirilgan o'zbek xalq maqollari bilan mazmun va shakl jihatdan hamohangdir.

Ba'zan ma'nosi bir-biriga zid kelib qolgan qarindoshlik aloqalari bilan bog'liq maqollarga ham duch kelamiz: "Bir tog'a yetti ota o'rniga o'tar" maqoli tog'ning yetim bolaga ota o'rnida otadek mehr-muruvvat ko'rsatishga burchdorligini anglatib turadi. "Ming ignani yig'nasang tugma bo'loimas, ming ammani yig'nasang ona bo'loimas" maqolida esa amma har qancha mehri bo'lmasin, jiyani uchun ona o'rmini bosa olmasligi aytilgan. Negaki, amma ayol kishi bo'lganligi bois oilasida eriga qaram hisoblanadi. U eri ruxsat qilsagina, jiyani yordam bera oladi. Xuddi shuningdek, yangalar yetimparvarligiga ham shubha bilan qaralib: "Eti yanga yig'ilib, birta ona bo'loimas" deyiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalq maqollari keng qamrovli bo'lib, hayotning barcha jabhasini qamrab olgan. Sharq va g'arb xalqlarining hayot tarzi, o'y-hayollari bir-biridan keskin farq qilsada, maqollarda aks etgan mavzu va g'oyalarda ba'zi mushtarak jihatlar ko'zga tashlanadi. Begonalarning yetim boladan o'z manfaatini yo'lida foydalanishi, onasiz qolgan yetimning otasiz qolgan yetimga nisbatan ko'proq xor bo'lishi, o'gay ota va o'gay onalarning rahm-shavqatsiz bo'lishi bilan bog'liq maqollarning har ikkala xalq tomonidan qo'llanilishi buning isbotidir. Tahlil qilingan maqollar misolida yetimlik va o'gaylik tushunchalarida turli millatlar o'rtasida o'xshash qarashlar mavjud deb aytish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Musiqa. – T.: 2010. –B. 370.
2. Phyu Thinn. International Journal of Social, Politics & Humanities ISSN: 2797-3735, Volume 3, Issue 1. – R. 146-153.
3. Fozilov M. Aql aqldan quvvat oladi. O'zbekiston. – T.: 1967. –B. 191.
4. To'xtaboev X. Jannati odamlar. Yangi asr avlodi. – T.: 2015. –B. 265.
5. Karomatova K.M., Karomatov H.S. Proverbs – Maqollar – Poslovitsi. Mehnat. – T.: 2000. –B. 400.
6. Walter Keating Kelly. Proverbs all nations. – London, 1859.
7. Shomaqsudov Sh, Shoraxmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati. –T.: 1990. –B. 527.
8. Oxford Concise Dictionary of Proverbs. Oxford University Press, 2003.
9. A Complete Collection of English proverbs. John Ray. – London, 1768. – 150 p.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. Russkiy yozik. - Moskva: 1981. – B. 632.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. Russkiy yozik. - Moskva: 1981. – B. 717 .

#### O'zbek tilida diplomatik terminlar o'rtasidagi leksik-semantik xususiyatlar Lexical-semantic features between diplomatic terms in Uzbek language

*Mavhyanov Sanjar Djambulovich\**

*Annotation: When talking about the lexical-semantic features of diplomatic terms, it is necessary to focus on their speech-thematic groups. Each document uses not only a formal template, but also speech-specific terms.*

*Diplomatic documents are very comprehensive, they cover not only issues related to the declaration of independence of countries and the establishment of diplomatic relations with other countries, but also political issues such as peace, neutrality, disarmament, etc. and various issues related to cultural cooperation. The author analyzes the problem of defining diplomatic terms in dictionaries of the Uzbek and English languages. The second part of the article provides a general analysis of one- and two-word diplomatic terminology, a classification of diplomatic terms in Uzbek and English, as well as the basics of using terminological combinations in the text.*

*Key words: lexical-semantic, diplomatic terms, speech-specific terms, dictionary, diplomacy.*

---

\* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqotlar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi muhandisi, [mavhyanovsanjar@mail.ru](mailto:mavhyanovsanjar@mail.ru)